

**GLOBALLASHUV ASRIDAGI YOSHLARIMIZNING O'SMIRLIK DAVRIDAGI  
OTA-ONALAR BILAN MUNOSABATI**

**Daribaev Atabay Baxit o'g'li**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Pedagogika psixologiya kafedrasi amaliy psixologiya yo'nalishi 1-kurs student.

**Sipatdinov Arman Sharafatdinovich**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Pedagogika psixologiya kafedrasi amaliy psixologiya yo'nalishi 1-kurs student.

Ilmiy rahbar.

**Mambetiyarova Venera Reyimbaevna**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Pedagogika psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11176657>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi jamiyatimizda global muommaga aylanib kelayotgan yoshlarimizning o'smirlik davridagi inqirozli o'zgarishlar va ota-onalar bilan kelib chiqadigan ziddiyatli vaziyatlarni o'rghanish to'g'risida so'z yuritiladi. Shu kabi muommali vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, o'smir, inqiroz, avtonomiya, empatiya, muloqat.

**THE RELATIONSHIP OF OUR YOUTH IN THE ERA OF GLOBALIZATION WITH  
THEIR PARENTS DURING ADOLESCENCE**

**Abstract.** This article talks about the study of crisis changes in adolescence and conflict situations with parents, which are becoming a global problem in our modern society. The main purpose of the article is to provide instructions for eliminating such problematic situations.

**Keywords:** Psychology, teenager, crisis, autonomy, empathy, communication.

**ОТНОШЕНИЯ НАШЕЙ МОЛОДЕЖИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ С  
РОДИТЕЛЯМИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

**Аннотация.** В данной статье говорится об исследовании кризисных изменений подросткового возраста и конфликтных ситуаций с родителями, которые становятся глобальной проблемой в нашем современном обществе. Основная цель статьи – дать инструкции по устранению подобных проблемных ситуаций.

**Ключевые слова:** Психология, подросток, кризис, автономия, эмпатия, общение.

Hozirgi bizning globallashuv davrimizda ko'pgina ota-onalarda bolalarning o'smirlik davriga kelib ularning tarbiyasida qiynalishlari va ularni tushunmasliklari, shuningdek ularda kuzatiladigan tushunarsiz xolatlar to'g'risida birmuncha savollar yuzaga kelmoqda. Shu va shu kabi boshqa savollar yuzasidan javob topish maqsadida ko'pgina tajribali psixolog va pedagoglar katta ilimiylardan amalga oshirishmoqda. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat ham bunga yaqqol misoldir.

Xususan, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini

namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”<sup>[1]</sup> deb ta’kidlab o’tdi. Yoshlarimizning kamol topishida alohida e’tibor talab qiluvchi davrlardan biri bu o’smirlik davri hisoblanadi.

O’smirlik-bolalikdan kattalikka o’tish davri bo’lib, fiziologik va psixologik jihatidan o’ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O’smirlik balog’atga yetish davri bo’lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo’lishi bilan ham xarakterlanadi. Shu bois ko’pgina olimlar bu davrni “o’tish davri”, “inqirozli davr” va “qiyin davr”<sup>[2]</sup> kabi nomlar bilan atagan. Chunki, bu yoshdagagi o’smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o’z o’rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. Shu sababdan ko’pgina ota-onalar farzandlaridagi bu o’zgarishlarni tushunmaslik holatlari kuzatilmoqueida. Buning natijasida ota-onasi va farzandlar o’rtasida nizolar kelib chiqmoqda.

Nizolarning asl sababi sifatida o’smirlardagi zarurat va talab-ehtiyojlari ortishi bilan atrof-muhitning ushbu talablarni qondira olmasliklari ko’rsatiladi. Shu tufayli o’smirlarda injiqlik, qaysarlik, qo’pollik va o’zboshimchalik kabi bir qator o’zgarishlar kuzatiladi.

Shu davrning yana bir o’ziga xos hususiyatlaridan biri avtonomiya hodisasisidir.

Avtonomiya hodisasi tufayli o’smirlar o’zlarini katta insondek his qilishlari, endilikda ularga murakkab vazifalar berilishini istashlari, lekin ota-onalar tomonidan bu talablar o’rinlanmaganligi sababli o’smirlar o’z ota-onalariga qarshi chiqishlari, ularga bo’ysinmaslik holatlari kuzatiladi. “Meni tushunmaysizlar”, “Meni yoqtirmaysizlar”, “Mening sizlarga keragim yo’q” va “Meni nimaga dunyoga keltirdinglar?” kabi so’zlarni aytishlari ota-onalarda xavotirni keltirib chiqaradi. Shu masala yuzasidan ota-onalar tomonidan psixologlarga ko’plab murojatlar kelib tushmoqda. Bu murojatlar yuzasidan psixologlarimiz ota-onalar va farzandlarga bir nechta psixologik uslublar va metodikalar taklif etadir. Masalan “Liri metodikasi” bunday vaziyatlarda samarali metodikalardan biri hisoblanadi. Bu metodika texnikasi shaxsning boshqalarga nisbatan dominant tipidagi munosabatini baholash uchun ishlataladi. Unga ko’ra shaxs xususiyatlari 8 shkala bo’yicha 3 xil darajada ajratiladi. Maktabning 7-8-sinf o’quvchilarida o’tkazilgan ushbu metodika tahlili bo’yicha eng yuqori ko’rsatgichlar hukmronlik (69%), o’ziga bo’lgan ishonsh (66%), talabkorlik (48%), skeptitsizm (48%), muloyimlilik (76%), itoatkorlik (79%), haddan tashqari konformizm (62%), xudbinlik (55%) ni ko’rsatdi. Bu natijalar bo’yicha o’smirlar va ularning yaqinlariga tegishli maslahatlar berildi.

Psixologlarimiz vaziyatni chuqur o’rganib chiqib uni tahlil qilganidan so’ng ota-onalar va farzandlar o’rtasidagi sog’lom muloqotni ta’minlash maqsadida quyidagi strategiyalarni tavsiya qiladilar:

- Empatiya: Ota-onalar o’smirlarining hissiy tajribalarini tushunishga harakat qilishlari va ularga hamdard bo’lishlari kerak. Empatiya kuchli aloqa o’rnatishning asosidir.
- Ochiq muloqot: Muammolar haqida gapirish va hissiyotlarni baham ko’rish oila ichidagi ochiq muloqotni rag’batlantiradi. Ota-onalar farzandlariga o’z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berishlari kerak.
- Chegaralarni belgilash: Sog’lom munosabatlar chegaralarni belgilash va ularni hurmat qilishni talab qiladi. Ota-onalar farzandlari bilan aniq muloqot qilishlari va qoidalarni kelishib olishlari kerak.

- Qo'shma qarorlar qabul qilish: O'smirlarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki ularning mustaqillik tuyg'usini qo'llab-quvvatlaydi. Birgalikda qaror qabul qilish oilada ishonchni oshirishi mumkin.

Bu strategiyalar ota-onalar va o'smirlarning bir-birlarini tushunishlariga, ular o'rtasidagi aloqaning yanada yaxshilanishiga, o'smirlarning o'z ota-onalariga bo'lgan ishonchining ortishiga yordam beradi. Ushbu strategiyaning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagicha maslahatlar berilishi mumkin. O'smirlar tarbiyasida turli cheklovlar, do'q-po'pisalar samarasiz bo'lib va farzandingiz uchun xavfli ekanligini unutmang. Haddan tashqari ko'p taqiq va bola erkinligini cheklash o'smirning agressiv bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. O'smirlik davrida ota-onan farzandi bilan ko'proq muzokara olib borsa, ijobiy natijaga erishiladi. Taqiqlash zarur bo'lsa, taqiqning sababini tushuntirishga alohida vaqt ajrating. Agar bola norozilik bildirishni davom etsa, u holda sizga ham, unga ham mos keladigan yechim topishga harakat qiling. Ishdan uyga qaytganingizda, bola noto'g'ri ish qilgan bo'lsa ham, uni koyimang. Avval bu nojo'ya ishning sababini so'rang.

Farzandingiz kun davomida nima ishlar qilganiga qiziqing. Suhbatlashgandan so'ng to'g'ri yo'l ko'rsatib, do'stona nasihat qilish yaxshi samara beradi. Bolaga uning hayotidagi istiqbollar va kelajak haqida gapiring. Farzandingiz nimani xohlashini, o'z maqsadiga qanday erishmoqchi ekanligini bilib oling, unga aniq va real harakat rejasini ishlab chiqishga yordam bering. Agar ayrim sabablarga ko'ra bola bilan til topisha olmasangiz o'z vaqtida mutaxassis bilan maslahatlashing. Psixolog bilan individual ravishda birga ish olib boring. Shundagina bolangiz bilan munosabatlaringizda iliqlik, ishonch va hamjihatlikni tiklashga ko'mak beradigan zarur ko'nikmalarga ega bo'lasiz.

## REFERENCES

1. Z. T. Nishanova Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya /darslik/. Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, 418 bet.
2. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
3. Sipatdinov, Arman Maturazova, Zulfiya The composition of psychology as an independent science and directions of psychology in the period of open crisis // Modern Science And Research, 3(2), 1226-1236, ISSN: 2181-3906, 2024.
4. Daribaev A., Sagindikova N. HISTORY OF PSYCHOLOGY //Modern Science and Research.2024. T. 3. №. 1. C. 1162-1166.
5. Venera M. Socio-Psychological Features of Relationships of Children and Their Parents //American Journal of Social and Humanitarian Research. 2022. T. 3. №. 8. C. 151- 152.
6. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
7. Z. T. Nishanova Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya /darslik/. Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020, 218 bet.